

TAKRORIY EKINDA MAKKAJO'XORI DURAGAYLARINING KO'CHAT QALINLIGINING O'SIMLIK RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

EFFECT OF CORN HYBRID THICKNESS ON PLANT DEVELOPMENT IN REPEATED CROPS

Stajyor-tadqiqotchi: Gulnoraxon Nazirova Orifjon qizi
Don dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti

Trainee-researcher: Gulnarakhan Nazirova, daughter of Arifjan
Research Institute of Cereal Leguminous Crops

Annotatsiya: Tadqiqotning amaliy ahamiyati Andijon viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida duragaylarning biologik xususiyatlariga mos yuqori don hosili yetishtirishni ta'minlaydigan ko'chat qalinligi ishlab chiqish asosida makkajo'xori yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish.

Annotation. The practical significance of the study. Cultivation technologies will be improved based on the development of optimal sowing dates and seedling thickness, providing high grain yields in accordance with the biological characteristics of maize varieties and hybrids in irrigated meadow-gray soils. Andijan region.

Kalit so'zlar: Makkajo'xori, duragay, hosildorlik, ko'chat qalinligi, Mashuk 140, Mashuk 168, Baykal, Nyuton.

Key words. Maize, hybrid, productivity, seedling thickness, Mashuk 140, Mashuk 168, Baykal, Nyuton.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020—2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi farmonida “Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish” Strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan. [1]

Davlatimizda donchilikni rivojlantirishga jiddiy e'tibor ko'rsatilmoqda. Bug'doydan bo'shagan yerlardan foydalanib ikkinchi hosil yetishtirish maqsadida

bir necha xil yoʻnalishda ilmiy ishlar olib borilmoqda. Takroriy ekin sifatida makkajoʻxori, joʻxori, sudan oʻti, suli, soya kabi ekinlar ekilishi mumkin. Shu oʻrda takroriy ekin sifatida makkajoʻxori dunyo dexqonchiligining asosiy ekinlaridan biridir. Jaxonda FAO maʼlumoti boʻyicha ekin maydonlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Makkajoʻxorining oʻrtacha xosildorligi gektaridan 4-8 toʻnnani tashkil etadi. Oʻzbekistonning tuproq iqlim sharoiti, keying yillarda gʻalla ekin maydonlarini kengayishi, asosiy dexqonchilik sugʻoriladigan sharoitda ekanligi takroriy ekin sifatida makkajoʻxori ekilganda yuqori xosil olish imkonini beradi. Bu fikrni nazariy xisoblashlar tasdiqlaydi. Andijon viloyati sharoitida yil davomida 1gektar ekinzorga 8 mlrd.kkal. fotosintetik aktiv radiasiya FAR keladi, shundan 3,2 mlrd FAR oʻsimlirlar vegetasiyasi mart-avgust oylariga toʻgʻri keladi. Qolgan qismi sentyabr-mart oylarida ekinzorlarga tushadi. Nazariy xisoblashlar boʻyicha bu davrda 1 gektar maydonga 2,8-3, mlrd.kkal. FAR keladi. Bu makkajoʻxorini tezpishar (80-90kun) oʻrta tez pishar(90-100 kun) va oʻrta pishar (100-112 kun),duragay va navlarini ekib,toʻla don xosilini olish mumkunligini koʻrsatadi. Mahalliy sharoitda yuqori xosildor, tezpishar,oʻrtacha tezpishar va oʻrtapishar nav va duragaylarini tanlash, takroriy ekish uchun moʻljallangan maydonlardan ekinni (kuzgi bugʻdoy) ni qisqa muddatda yigʻishtirib olish va iyun oyining oxirgi 10 kunligida tuproqqa ishlov berib,makkajoʻxorini qisqa muddatlarda ekish va tezroq undirib olish chora- tadbirlarini koʻrish lozim.

Tadqiqotning maqsadi : Andijon viloyatining sugʻoriladigan oʻtloqi boʻz tuproqlari sharoitida makkajoʻxori duragaylaridan yuqori va sifatli don olishda maqbul ekish sxemasini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

Makkajoʻxorini koʻchat qalinligini dala unuvchanligiga, yashovchanligiga ta'sirini oʻrganish;

turli koʻchat qalinligini makkajoʻxori duragaylarining oʻsishi va rivojlanishiga ta'sirini oʻrganish;

turli koʻchat qalinligini makkajoʻxori duragaylarining don hosildorligi ta'sirini oʻragnish;

turli ko'chat qalinligini makkajo'xori duragaylarining don sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish;

turli ekish muddati ko'chat qalinligini makkajo'xori duragaylarining fotosintetik faoliyati, barg yuzasi, fotosintetik potentsial, biomassi to'planishi, fotosintez sof mahsuldorligiga ta'sirini aniqlash;

makkajo'xori duragaylarining ishlab chiqarish sinovlaridan o'tkazish hamda ishlab chiqarishga joriy qilish kiradi.

Ishning ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Andijon viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida navining biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, maqbul ko'chat qalinligini o'simlikning o'sishi rivojlanishi, ularning don hosili va sifatiga ijobiy ta'siri ilmiy asoslanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Andijon viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida duragaylarning biologik xususiyatlariga mos yuqori don hosili yetishtirishni ta'minlaydigan maqbul ko'chat qalinligi ishlab chiqish asosida yetishtirish texnologiyasini takomillashtiriladi.

Tajriba o'tkazish tizimi. Tajriba maydonida kuzgi to'rta Mashuk 140, Mashuk 168, Baykal, Nyuton duragaylari ekiladi.

№	Makkajo'xori duragaylari	Ekish muddati	Urug' ekish sxemasi
1	Mashuk 140	10.06	60x20-1
			60x25-1
			60x30-1
2	Mashuk 168		60x20-1
			60x25-1
			60x30-1
3	Baykal		60x20-1
			60x25-1
			60x30-1
4	Nyuton		60x20-1
			60x25-1
			60x30-1

O'zbekistonda makkajo'xori o'simligining tup qalinligini aniqlash

muammosi bilan ko'pchilik tadqiqotchilar shug'ullanishgan.

Jumladan, R.Tillayevning ma'lumotiga ko'ra, Respublika bo'yicha makkajo'xori bilan band maydonlar 1999 yilda 37,4 ming gektarni takroriy ekinda o'rtacha hosildorligi 20,4 sentnerni tashkil etgan. Sug'oriladigan yerlarda makkajo'xorini takroriy ekinda potentsial hosildorligidan to'la foydalanilmayotgani ko'rsatilgan. [2; 196-208-b.]

Hozirgi vaqtga kelib Respublikamizda I.V.Massino va boshqalar tomonidan yaratilgan makkajo'xori duragaylari don uchun va chorva mollari uchun silos tayyorlash maqsadida keng tarqalgan makkajo'xori nav va duragaylaridan o'rtapishar O'zbekiston 601 YeSV, kechpishar O'zbek tishsimoni, O'zROS kremniyli, o'suv davrida qisqa bo'lgan ertapishar Qorasuv 350 AMV, O'zbekiston 420 VL, O'zbekiston 300MV duragaylaridan keng foydalanilmoqda. [2; 20-b.]

I.Kimsanov, S.Abdusamatov tajribalarida ikkinchi ekin sifatida Qorasuv 350 AMB va O'zbekiston 306 AMB duragayidan yuqori urug' hosildorligiga erishishda eng maqbul ko'chat qalinligi 70-80 ming/ga tup bo'lishi aniqlanagan. [3; 139-140-b.]

Z.Xalikulov O'zbekiston o'simlikshunoslik ITI Toshkent viloyati sug'oriladigan bo'z tuproqlarida olib borgan tajribalariga asoslanib, duragaylar singari ularning ota-onalik tizmalari ham eng yuqori don hosili olish uchun FAO guruhiga bog'liq ravishda turlicha qalinlikda ekilishi, ya'ni o'rtagi-ertagi va tezpishpr (FAO 300 guruh) 80 ming/ga tup ko'chat qalinligida, (FAO 500 guruhi) 60 ming dona urug'/ga va (FAO 600) 50 ming dona urug'/ga ekilgan variantlar eng mahsuldordir degan xulosaga kelgan. [4; 37-b.]

Y.Sharipov Toshkent viloyati sharoitida ikkita makkajo'xori duragayini 50; 60; 70 va 80 ming/ga ko'chat qalinligi bir xil fosforli va kaliyli fonda hamda 180, 240 va 800 kg/ga azotli o'g'it me'yorlarini qo'llab o'rgangan. Eng ko'p yuqori don hosili "BTS 6661" va "Ulug'bek" makkajo'xori duraagylari 60 ming/ga tup o'simlik joylashtirilib, gektariga 240 kg/ga azot o'g'iti berilgan variantda olingan. Azotli o'g'it me'yori eng ko'p bo'lgan variantlarda, o'simlik tup saqlanuvchanligi pasaygan bo'lib, 50 ming/ga tup qalinligida bu ko'rsatkich uncha katta bo'lmagan.

Ko'chat soni eng ko'p bo'lgan variantlarda 1 dona o'simlik barg sathi nisbatan kichik va fotosintez mahsuldorligi past bo'lib, boshqa variantlarga nisbatan donining pishib yetilishi nisbatan kechikkan. [5; 139-b.].

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda Andijon viloyati sharoitida makkajo'xori navlarini tanlash, urug'chiligini tashkil qilish va ularni yetishtirishda qulay ekish usuli va me'yorlarini belgilash bo'yicha muayyan sharoitda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish hamda chetdan kirib kelayotgan duragaylarni mahalliy navlarga taqqoslab o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5853-son farmoni.
2. Tillayev R. Vozdel'vaniye i proizvodstvo kukuruzy v Uzbekistane, sostoyaniye i zadachi uluchsheniye // Materialy «Proizvodstvo i uluchsheniye kukuruzy v Sentralnoy Azii i Zakavkaz'ye» Almaty-Bishkek 2000, S. 196-208
3. Massino I.V., Axmedov S.M, Yedebayev D., Boboyev F.G', Azizov Q.Q., O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida ozuqa yetishtirish bo'yicha qo'llanma. Toshkent 2015, 20 b.
4. Kimsanov I., Absamatov S., Makkajo'xori UZBEKISTAN 306 AMV duragay nav urug'ini yetishtirish (urug' sifatini oshirishning biologik va texnologik asoslari) Toshkent 1998, 139-140 b.
5. Xalikulov Z.N Vliyaniya gustoti stoyaniya rasteniy na biologicheskiye i xozyaystvenno-tsenniye priznaki gibridov kukuruzy i ix roditeliskiy form. Tashkent 1994, 37 b.
6. Sharipov Y. Urojaynost gibridov Kukuruzy v zavisimosti ot gustoti stoyaniya i normi vnesseniya azotnix udobreniy. // Avtoref. diss.kand. s.-x. nauk. Tashkent 1987 20 b.